



MAMLAKAT IQTISODIY RIVOJLANISHIDA YASHIL MOLIYANING AHAMIYATI

Qoriyeva Shannoza Safarbayevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mehnat iqtisodiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi

MAQOLA HAQIDA

ANNOTATSIYA

Qabul qilindi: 24-dekabr 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-dekabr 2024-yil

Jurnal soni: 13

Maqola raqami: 25

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v13i1.1035>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

yashil moliya, ekologik barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish, yashil obligatsiyalar, qayta tiklanuvchi energiya, barqaror rivojlanish

Mazkur maqolada mamlakat iqtisodiy rivojlanishida yashil moliyaning o'рни va ahamiyati yoritiladi. Yashil moliya iqtisodiyotning ekologik barqarorlik tamoyillari asosida rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan moliyaviy tizim hisoblanadi. Maqolada yashil moliyaning asosiy vositalari – qayta tiklanuvchi energiya manbalarini moliyalashtirish, yashil obligatsiyalarni joriy etish va ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash ko'rib chiqilgan. Shuningdek, O'zbekiston tajribasi tahlil qilinib, yashil moliya orqali barqaror iqtisodiy rivojlanish va ekologik muvozanatni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar berilgan. Ushbu tadqiqot yashil moliyaning milliy iqtisodiyotda qo'llanilishini kengaytirish bo'yicha ilmiy-amaliy asoslarni taqdim etadi.

Kirish. Hozirgi kunda dunyo iqtisodiyoti yangi muammolar va chaqiriqlar bilan to'qnashmoqda. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning tez tugab borishi va atrof-muhitning ifloslanishi global miqyosdagi eng muhim masalalardan biridir. Bu jarayonlar natijasida davlatlar va xalqaro tashkilotlar barqaror rivojlanish tamoyillari asosida iqtisodiy siyosatni qayta ko'rib chiqishga majbur bo'lmoqda. Aynan mana shunday sharoitda yashil moliya iqtisodiy va ekologik muvozanatni ta'minlash uchun muhim vosita sifatida maydonga chiqdi.

Yashil moliya deganda, iqtisodiy faoliyatni ekologik barqarorlik tamoyillari asosida tashkil etishga yo'naltirilgan moliyaviy mexanizmlar tizimi tushuniladi. Bu tizim qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, chiqindilarni qayta ishlash va tabiiy resurslardan samarali foydalanish kabi yo'nalishlarni moliyalashtirishga qaratilgan. Ushbu moliya turi nafaqat ekologik muammolarni hal qilishda, balki iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, iqlim o'zgarishi dunyo iqtisodiyotiga har yili 1 trillion dollardan ortiq zarar yetkazmoqda. Bunday sharoitda iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash va atrof-muhitni muhofaza qilishni uyg'unlashtirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Masalan, Parij iqlim kelishuviga ko'ra, davlatlar o'z karbonat chiqindilarini sezilarli darajada kamaytirishi va 2050-yilgacha uglerod neytralligiga erishishi kerak. Bu jarayonda yashil moliyaning ahamiyati oshib bormoqda, chunki u ekologik loyihalarni moliyalashtirish va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish uchun zarur investitsiyalarni jalb etadi.

Hozirgi kunda, yashil moliyalashtirishni rivojlanishi bilan mahalliy va xorijiy olimlar ushbu mavzu bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borishmoqda. Jumladan, Bhatnagar va Sharma¹ yashil moliyalashtirishning akademik evolyutsiyasini bibliometrik tahlil qilib, uning rivojlanishining aniq ko'rinishini taqdim etdi. Xususan, ularning fikricha yashil moliya bo'yicha mavjud tadqiqotlarni quyidagi uchta toifaga bo'lish mumkin:

Ekologik soha. Yashil moliya nafaqat atrof-muhit sifatini yaxshilash va karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirishda emas, balki atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishini yumshatishda muhim rol o'ynaydi, shuningdek atrof-muhitning yaxlitligini oshirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga hissa qo'shadi.

Iqtisodiy soha. Mamlakatlarda chet el investitsiya xatarlarini kamaytirishdan tashqari, yashil moliya asosan texnologik innovatsiyalar orqali yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Bundan tashqari, iqlim risklarini hal qilish va barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish jarayonida turli mamlakatlarning markaziy banklari makromoliyaviy barqarorlikni saqlash uchun yashil moliya roldan to'liq foydalanishlari kerak.

Korporativ daraja. Bir tomondan, yashil moliyadan samarali foydalanish korxonalarining investitsiya strategiyalarini optimallashtirishi va yashil innovatsiyalarning moliyaviy cheklovlarini yengillashtirishi mumkin. Boshqa tomondan, yashil kreditlash siyosati yuqori darajada ifloslantiruvchi firmalarning likvid bo'lmagan qarzni moliyalashtirish xatti-harakatlarini ham cheklashi mumkin. Ko'rinib turibdiki, olimlar yashil moliyani joriy etish samaradorligi bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan, samarali natijalar bergan va yashil moliyaning iqtisodiy rivojlanish va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun ikki tomonlama ahamiyatini to'liq ko'rsatgan. Biroq, aslida, o'xshash atrof-muhit sharoitlari va bir xil tendensiyalarga ega bo'lgan nazorat va eksperimental guruhlarini topish qiyin, bu esa o'rganishda noxolis xulosalarga olib kelishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili. "Yashil" moliya va iqtisod, "yashil" o'sish va texnologik tartib innovatsiyalari sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar orasida xorijlik qator olimlarning – P. Krugman, M. Mazzukato va K. Peres, K. Berensman ishlari yetak-chilik qiladi. N. Lindenberg va rus olimlari E.M. Zomonova, B.N. Porfiryeva, B.B. Rubtsova va hammualliflari-rining "Dunyoda va Rossiyada "yashil" moliya" si ham xuddi shu qatorda o'zining ahamiyatiga egadir.² Xuddi shunday o'rganishlarga asoslanib aytish mumkinki, "yashil" moliyalashtirish va "yashil" moliyaviy vositalar haqida to'liq tushuncha beradigan yagona kelishilgan ta'rif haligacha shakllantirilmagan. Hozirgi kunda "yashil" atamasi qo'shiladigan iqtisodiyot sohalari keng tarqalmoqda va yashil moliya vositalari shular qatoridan o'rin egallaydi. Shunday bo'lsada, "yashil" moliyani ikki nuqtayi nazardan ko'rish mumkin. Birinchidan, "yashil" moliya atrof-muhitga yetkaziluvchi zararni, ayniqsa, iqlim o'zgarishining iqtisodiy tizim va insoniyat jamiyatiga ta'sirini yumshatishda rol o'ynashi mumkin. Ikkinchidan, "yashil" moliya yashil o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun maqsadli moliya sifatida ahamiyat kasb etishi mumkin. "Yashil" o'sish ekologik barqarorlik va iqtisodiy o'sishni birlashtirgan holda iqtisodiy o'sishning yangi paradigmasi bo'lganligi sababli ushbu g'oyani ilgari surish uchun iqtisodiyot tarmoqlari tomonidan moliyalashtirish zaruriyatiga ehtiyoj tug'illishini ham alohida ta'kidlash orqali fikr-mulohazalarga xulosa qilish mumkin.

Yashil moliya ekologik barqarorlikka erishishni ta'minlash uchun moliyaviy resurslarni jalb qilish, ulardan samarali foydalanishni o'z ichiga oladi. Jahon bankining (World Bank, 2019) hisobotida yashil moliya nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki iqlim o'zgarishiga qarshi kurashdagi muhim vosita sifatida ko'rib chiqilgan. Bu tushuncha quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

– Ekologik loyihalarni moliyalashtirish: qayta tiklanadigan energiya, chiqindilarni qayta ishlash va tabiiy resurslarni boshqarish.

¹ Bhatnagar, S., Sharma, D., 2022. Evolution of green finance and its enablers: a bibliometric analysis. *Renew. Sust. Energ. Rev.* 162, 112405. <https://doi.org/10.1016/j.rser.2022.112405>.

² E.M. Zomonova (2015) Strategiya perekhoda k "zelenoj" ekonomike: opit i metodi izmereniya [The Strategy of Transition to Green Economy: Experience and Measuring Methods]. Novosibirsk, GPNTB SO RAN.

– Yashil obligatsiyalar: ekologik infratuzilma va texnologiyalarni rivojlantirish uchun kapitalni jalb qilish vositasi.

– Barqaror investitsiyalar: uzoq muddatli iqtisodiy va ekologik samaradorlikni ta'minlash uchun kapitalni yo'naltirish.

G20 mamlakatlari tomonidan tayyorlangan "Yashil moliya bo'yicha yo'riqnomasi" (Green Finance Study Group, 2016)³ hisobotida yashil moliya iqtisodiy barqarorlik va ekologik mas'uliyatni uyg'unlashtirish tamoyillari sifatida taqdim etilgan. Bu hisobotda xalqaro hamkorlik va moliyaviy sektorning yashil moliyaga o'tishdagi roli batafsil yoritilgan.

Berkli Kaliforniya universiteti (2017) ma'lumotlariga ko'ra, barqaror moliya -bu vaqt o'tishi bilan barqaror bo'lgan moliyaviy modellar, mahsulotlar va bozorlar orqali iqtisodiy va ijtimoiy qiymat yaratish amaliyotidir. U nafaqat ekologik jihat, balki ijtimoiy jihat va boshqaruv masalalarini ham hisobga olgan holda keng qamrovli investitsiyalardan foydalanish lozimligini ko'rsatadi.

Gilbert (2012): "Yashil moliya – bu barqaror rivojlanish loyihalari va tashabbuslariga, atrof-muhitga oid mahsulotlarga va yanada barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishni rag'batlantiradigan siyosatlariga tushadigan moliyaviy investitsiyalarni nazarda tutishi mumkin bo'lgan keng atamadir. Yashil moliya iqlimni moliyalashtirishni o'z ichiga oladi, lekin u bilan cheklanmaydi, shuningdek, boshqa atrof-muhit maqsadlari, masalan, sanoat ifloslanishini nazorat qilish, suv sanitariya yoki biologik xilma-xillikni muhofaza qilish, yumshatish va moslashishni moliyalashtirish, ayniqsa, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq faoliyat bilan bog'liq: yumshatish bo'yicha moliyaviy oqimlar issiqxona gazlari emissiyasini (GHG) kamaytirish yoki oldini olishga hissa qo'shadigan loyihalar va dasturlarga investitsiyalarni nazarda tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologiyasi yashil moliyaning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini tahlil qilish va ushbu yo'nalishda samarador strategiyalarni aniqlash uchun tizimli va qiyosiy yondashuvlarga asoslanadi. Ushbu metodologiya iqtisodiy-ijtimoiy va ekologik ko'rsatkichlarni o'rganish, mavjud muammolarni tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda turli moliyaviy instrumentlar, jumladan, grantlar, kreditlar va investitsiyalar jalb qilinmoqda. Yashil obligatsiyalar chiqarish va boshqa moliyaviy mexanizmlar orqali yashil loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlari o'rganilmoqda. Bundan tashqari, yashil texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajriba va bilimlarni o'rganish va tatbiq etish uchun xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilinmoqda. Hamda davlat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish uchun maxsus tadbirlar va forumlar tashkil etilmoqda. Xulosa qilib aytadigan bo'lsa, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha joriy qilingan chora-tadbirlar va soliq imtiyozlari ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy iqtisodiyotda O'zbekistonda qator yashil moliya instrumentlardan foydalanish joriy qilingan bo'lib, rivojlanish tendensiyalari quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda. Jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya samaradorligi O'zbekiston hukumati qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Bu yo'lda, quyosh va shamol energiyasi loyihalarini amalga oshirish uchun xalqaro investitsiyalar jalb qilinmoqda. Masalan, Birlashgan Arab Amirliklari va Saudiya Arabistoni kompaniyalari bilan hamkorlikda quyosh energiyasi loyihalari amalga oshirilmoqda. 2023 yilda «Yashil energiya» strategiyasi qabul qilinib, unda 2030 yilgacha elektr energiyasining 25 foizini qayta tiklanuvchi manbalardan olish maqsad qilingan bo'lsa, joriy yilda O'zbekistonda umumiy quvvati 1000 MVt bo'lgan bir nechta quyosh elektr stansiyalari qurildi va foydalanishga topshirildi. «Masdar» (BAA) va «ACWA Power» (Saudiya Arabistoni) kompaniyalari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar natijasida mamlakatda quyosh energiyasi ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada oshganini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Tadqiqot natijalari. O'zbekistonda yashil moliya vositalaridan foydalanish joriy holati mamlakatning ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadlariga qaratilgan harakatlarini aks ettiradi.



1-rasm. O'zbekistonda amalga mavjud yashil moliya vositalari⁴

Yashil iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashda O'zbekiston hukumati va xalqaro moliya institutlari tomonidan yashil obligatsiyalar chiqarish amaliyoti kengaymoqda. Jumladan, 2023 yilda O'zbekistonda yashil obligatsiyalar orqali jalb qilingan mablag'lar miqdori 500 million AQSh dollariga yetdi. Bu mablag'lar asosan qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi va chiqindilarni qayta ishlash loyihalariga yo'naltirildi. «O'zbekiston Milliy Banki» tomonidan chiqarilgan yashil obligatsiyalar orqali jalb qilingan mablag'lar quyosh va shamol energiyasi loyihalariga yo'naltirilganini misol qilib keltirishimiz mumkin. Bundan tashqari, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun xalqaro moliya institutlari va hukumat tomonidan taqdim etilayotgan yashil kreditlar va grantlar soni ortib bormoqda. 2023 yilda umumiy miqdorda 1 milliard AQSh dollaridan oshiq yashil kreditlar va grantlar ajratildi. Misol uchun Jahon banki tomonidan moliyalashtirilgan energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya loyihalari uchun 300 million AQSh dollari ajratildi. Qolaversa, Osiyo taraqqiyot banki tomonidan chiqindilarni qayta ishlash va suv resurslarini boshqarish loyihalari uchun 200 million AQSh dollari miqdorida mablag'lar safarbar qilindi. Yashil sug'urta vositalari orqali ekologik xavf-xatarlardan himoyalash imkoniyatlari kengaymoqda, jumladan, qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga investitsiyalarni sug'urtalash xizmatlari joriy etilmoqda. O'zbekiston hukumatining yashil investitsiyalar, ya'ni, qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi va chiqindilarni qayta ishlash sohalariga jalb qilgan investitsiyalari ortib bormoqda. 2023 yilda yashil investitsiyalar hajmi 2 milliard AQSh dollaridan oshdi. «Masdar» (BAA) va «ACWA Power» (Saudiya Arabistoni) kompaniyalari tomonidan

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan quyosh va shamol energiyasi loyihalari jami 1 milliard AQSh dollaridan oshiq investitsiyalarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan «Yashil energiya» strategiyasi va boshqa ekologik dasturlar orqali yashil moliya vositalaridan foydalanish kengaymoqda. 2030 yilgacha elektr energiyasining 25 foizini qayta tiklanuvchi manbalardan olish maqsadi qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi tomonidan qabul qilingan «Yashil energiya» strategiyasi doirasida qator loyihalar amalga oshirilmoqda, jumladan, quyosh va shamol energiyasi stansiyalari qurilishini keltirishimiz mumkin. O'zbekistonda yashil moliya vositalaridan foydalanish joriy holati va istiqbollari mamlakatning ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadlariga erishishiga yordam beradi. Bu jarayonda xalqaro hamkorlik va moliyaviy ko'mak katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. O'zbekistonda yashil moliyaviy vositalardan foydalanishning hozirgi holati hamda ularning milliy iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qilishda qayta tiklanuvchi energiya, energiya tejamliligi, chiqindilarni qayta ishlash, yashil transport vositalarini qo'llab-quvvatlash kabi sohalarida yashil moliya vositalardan foydalanish hozirda dolzarbligini keltiradi. Shuningdek, O'zbekistonda bank sektori va hukumat ESG (Atrof-muhit, Ijtimoiy va Korporativ boshqaruv) tamoyillariga tobora ko'proq e'tibor qaratmoqda. Xususan, Ipoteka-bank va Asakabank yashil kreditlarni joriy qilgan bo'lsa, davlat yashil obligatsiyalar orqali barqaror rivojlanish uchun moliyaviy resurslarni jalb qilmoqda. Bu jarayonda xalqaro moliya institutlari, jumladan, Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki ajratayotgan mablag'lar muhim rol

³ https://g20sfwg.org/wp-content/uploads/2021/07/2016_Synthesis_Report_Full_EN.pdf

⁴ <https://cedr.uz/2024/10/04/milliy-iqtisodiyotda-yashil-moliya-instrumentlaridan-foydalanishning-joriy-holati-tahlili/>

o'ynaydi. Yashil fiskal siyosat O'zbekistonda soliq imtiyozlari va ekologik loyihalarga subsidiya berish shaklida joriy etilgan. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va ekologik toza texnologiyalarga berilayotgan soliq imtiyozlari iqtisodiyotning ekologik o'zgarishiga hissa qo'shmoqda. Xulosa qilib aytganda, yashil moliya vositalarining

kengayishi va hukumat tomonidan qabul qilingan yashil siyosatlar O'zbekistonning barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi. Mamlakatdagi yashil moliyalashtirishning muhimligini va imkoniyatlarini yoritib beradi hamda kelgusidagi o'sish uchun strategik yo'nalishlarni belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bhatnagar, S., Sharma, D., 2022. Evolution of green finance and its enablers: a bibliometric analysis. *Renew. Sust. Energ. Rev.* 162, 112405 <https://doi.org/10.1016/j.rser.2022.112405>.

2. E.M. Zomonova (2015) Strategiya perekhoda k "zelenoj" ekonomike: opit i metodi izmereniya [The Strategy of Transition to

Green Economy: Experience and Measuring Methods]. Novosibirsk, GPNTB SO RAN.

3. https://g20sfwg.org/wp-content/uploads/2021/07/2016_Synthesis_Report_Full_EN.pdf

4. <https://cedr.uz/2024/10/04/milliy-iqtisodiyotda-yashil-moliya-instrumentlaridan-foydalanishning-joriy-holati-tahlili/>